

NAVOIY G‘AZALLARI TARJIMASIDA BADIY SAN‘ATLARNING SAQLANISHI

Azilova Zuhra Gulmon qizi,

Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

azilovazuhra@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4834-7887

Annotatsiya. Maqolada Navoiy g‘azallarining qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalari to‘g‘risida so‘z boradi. Tarjima-g‘azallar asliyat bilan qiyosiy tahlil qilinib, g‘oyasi va mazmuniga ko‘ra tafovutlar, badiiy san‘atlarning saqlanishi masalasi tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: bayt, radif, she‘riy san‘atlar, istiora, qofiya, radif, badiiy san‘atlar.

Аннотация. Перевод газелей будет проанализирован в сравнении с оригиналом, а также будут проанализированы различия в идее и содержании, а также вопрос сохранения художественных приемов.

Ключевые слова: байт, радиф, поэтические искусства, истиора, рифма, радиф, художественные искусства.

Abstract. The article discusses the translations of Navoi's ghazals into the Karakalpak language. The translated ghazals are comparatively analyzed with the original texts, focusing on differences in meaning and content, as well as the preservation of poetic devices and artistic features.

Keywords: bayt (couplet), radif (refrain), metaphor, rhyme, poetic devices, artistic features.

Kirish. Alisher Navoiy – avlodlarga bebaho, ulkan meros qoldirgan shoir. U Sharq mumtoz adabiyotining barcha janrlari bo‘yicha dunyo adabiyotini oltin xazinasini bilan boyitdi. Ularning orasida g‘azal janri shoir ijodining uchdan bir qismini tashkil etadi. Navoiy g‘azallari XX asrning 30-40-yillaridan buyon qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib kelmoqda. Alisher Navoiy g‘azallari navoiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Navoiy g‘azallari I.Yusupov, Sh.Ayapov, S.Ibragimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Biroq, Navoiy g‘azallarining qoraqalpoqcha tarjimasini bo‘yicha maxsus tadqiqot yaratilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy g‘azallari qoraqalpoqcha tarjimasini asliyat bilan qiyosiy holda tahlil qilinib, badiiy san‘atlarning saqlanishi masalasi o‘rganiladi. Shu bois maqolada badiiy tahlil, qiyosiy tahlil metodlaridan ham foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Navoiyning “Qizil, sorig‘, yashil” radifli g‘azalida tansiq as-sifat san‘atidan foydalaniladi. Tansiq as-sifat arabcha – sifatlar tizmasidir. A.Husayniy bu san‘atga quyidagicha ta‘rif beradi: “Bu san‘atni ul jihattin tansoqu-as-sifat atapturlarkim, so‘zlaguvchi kalomda bir necha sifatni bir-biriga ulab ketar” [3;100]. Keyingi baytda oshiqning iztiroblari kuchayib boradi, ishq sahrosini ohlarining to‘foni bilan “gulshan et”adiki, “samum – har narsani quritadigan issiq shamol, garmsel” [1;32] har tarafga qarab, “qizil, sorig‘, yashil” ranglarda esadi:

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,

Kim esar ul dasht aro har yon qizil, sorig‘, yashil.

Baytda “ishq sahrosi” iborasi istiora, oshiq ohining dasht uza turli rangdagi samum – garmseldek kezishi esa mubolag‘adir.

Tarjimada:

Ayraliqtn‘ shólinde ah sheksem, d‘art g‘ulxani,

Tamiziqsiz tutanar qizil, jasil, zapiran,

Baytdagi “Ayraliqtn‘ shóli” – istiora, “ah sheksem, d‘art g‘ulxani, tamiziqsiz tutanar” – mubolag‘a san‘atiga mezonlariga mos tushadi.

Navoiyning “Bo‘ldum sanga” radifli g‘azali ham Sh.Ayapov va S.Ibragimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan.

Ko‘rgali husningni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga,

Ne baloliq kun edikim, oshno bo‘ldim sanga.

Ahamiyat bersak, bu – tazodiy tasvir. Ayni san‘at qoraqalpoq tiliga qilingan ikkala tarjimada saqlangan.

Sh.Ayapov tarjimasi:

Kóriwge husni‘ndi zariw-múptala boldim sa‘gan,

Ne báleli kun edi, ashıq-ashna boldim sa‘gan.

S.Ibragimov tarjimasi:

Kórgeli húsni‘ndi, zariw-múptala boldim sa‘gan,

Ne báleli kun edi, – qaydan jaqın boldim sa‘gan,

G‘azalda qofiyani keltirish ham bir san‘at hisoblanib, radd-ul qofiya san‘atidan unumli foydalanilgan. Bu san‘atning mohiyati shundaki, birinchi misradagi qofiya, ikkinchi baytning oxirida ham takrorlanadi. Mazkur g‘azalning 1-va 2- baytlarida mubtalo so‘zi qofiya sifatida keltiriladi:

Har necha dedimki, **kun-kundin** uzay sendin ko‘ngul,

Vahki, **kun-kundin** batarrak **mubtalo** bo‘ldum sanga

Har ikkala tarjimada ham mubtalo so‘zi o‘z holicha saqlanib, radd ul-qofiya san‘ati saqlangan. Asliyatda g‘azal a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalangan, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. **S.Ibragimov tarjimasida** qofiya 2-3-5-baytlarda keltirilgan: 1-baytda: múptala-jaqın, 4-baytda tayar, 6-baytda qariydar, 7-baytda: qul so‘zlari qofiyadosh emas. **Sh.Ayapov tarjimasidagi** qofiyalar: múptala-ashna, múptala, pidayı, diywana, bále, gada, biynawa. Faqatgina, 3-baytda “pidayı” so‘zi qofiyadoshlik hosil qilmagan. Ko‘rinadiki, Sh.Ayapov tarjimasida qofiyalar nisbatan to‘liq berilgan.

Ikkinchi bayt. Sh.Ayapov tarjimasida:

Qansha dedim: uzaq kún sennen kewil uzbekti,

Waq, netermen kúnnen-kúnge muptala boldim sa‘gan.

Tarjimada mazmun jihatdan qarshilantirish san‘ati bor. Asliyatda kun-kundin so‘zi qo‘shmisralarda ikki marta takrorlangan. Bu mumtoz adabiyotda mukarrar san‘ati deyiladi. “Mukarrar so‘zi “qayta-qayta, ust-ustiga” ma’nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan

ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi" [3;100]. Tarjimada birinchi misradagi "kun-kundin" so'zi "uzaq kun", ikkinchi misrada esa "kúnnen-kúnge" deb o'girilgan. "Kun-kundin" so'zi "kún-kúnnen" deb tarjima qilinsa, mukarrar san'ati tarjimada saqlangan bo'lar edi.

Mazkur bayt S. Ibragimov tarjimasida:

Qansha qarar etsem de úzbege kónildi sennen –
Átteń-ay, kún-kunnen beter múptala boldım sağan.

Tarjimada mukarrar san'ati aks etmagan, lekin tazod bor.

G'azal baytlaridagi nido san'ati tarjimada saqlangan. To'rtinchi baytda – "Ey pari paykar" *Sh.Ayapovda*: "Áy, peri gózzal"; *S.Ibragimovda*: Áy, periyzat, beshinchi baytda – "Ey ko'ngul"; *Sh.Ayapovda*: "Áy, kewil"; *S.Ibragimovda*: Áy, kónil, oltinchi baytda – "Soqiyo"; *Sh.Ayapovda*: "Áy, saqiy"; *S.Ibragimovda*: "Saqiy" undalmalari qo'llanilgan.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

Sh.Ayapov tarjimasida talmeh san'ati ham mujassamlashgan. **S.Ibragimov tarjimasida** Jamshid jomi tushirilgan, "Xizir suvi – XIZIR qudiği súvı" tarzida ifodalanib, "qudiq" so'zi qo'shilgan.

Maqta'da tasavvufiy ma'no yanada kuchayadi. Baytda tasavvufiy fikr yanada kuchayadi. Baytdagi "navoe", "Navoiy" benavo so'zlari bir o'zakdan yasalgan o'zakdosh so'z hisoblanib, "ishtiyoq" san'atini yuzga keltirgan. *Sh.Ayapov tarjimasida* "navo" so'zi "Nawayi", "biynawa" tarzida ikki marta ishlatilgan. Shunga asoslanib, ishtiyoq san'ati saqlangan deyishimiz mumkin. *S.Ibragimov tarjimasida* esa navo so'zi faqat bir martagina keltiriladi. Yuqoridagi misollarga asoslangan holda *Sh.Ayapov tarjimalari S.Ibragimov tarjimalariga nisbatan mukammallik kasb etadi deyish mumkin. Chunki, Sh.Ayapov tarjimalarida g'azal qofiyalariga katta e'tibor berilgan. Mazmun-mohiyati ham uzviy ochib beriladi. Badiiy san'atlardan ham mohirona foydalanilgan.*

S.Ibragimovda she'riy san'atlar saqlanmagan degan fikrdan yiroqmiz. S.Ibragimov ham imkon boricha badiiy san'atlarni ifodalashga harakat qilgan va buning uddasidan ham chiqqan. Faqat nisbatan olib qaraganda, Sh.Ayapov tarjimalari badiiylik jihatdan barkamol chiqqanligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Zotan, "She'riy asar (qo'shiq, g'azal, ruboiy, sonet, poema, ballada, va hokazo) tarjimadan yayrab chiqishi dastavval tarjimonga bog'liq"[4;5].

Navoiyning "O't" radifli g'azalining matla'sida shoir oshiq ohidan butun jahon lolazordek qizorib ketganini tasvirlar ekan, tajohuli orif san'atidan foydalanib, u lolazor emas, ohimdin jahonga o't tushdi. Shafaq emas, bepayon osmonga mening ohimdan o't tushdi deb tasvirlab, "oh"ni lolazorga, shafaqqa, o'tga tashbeh qiladi. Baytdagi bu tasvirda mubolag'a san'atining yuqori bosqichi – g'uluvdan foydalaniladi. Shuningdek, bayda Jam' san'atidan ham foydalaniladi. lolazor, o't, shafaq so'zlarida jamlash uchun asos bo'lgan belgisi jomi – qizil rangi yashirin holda berilgan.

Lolazor ermashi ohimdin jahonga tushdi o't,
Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o't.

D.Aytmuratov tarjimasida:

Ahimnan lalazar emes, putkil jáhánğa ot tústi
Jaq, kún batqan joq qizarıp, shetten aspanğa ot tústi.

Tarjimada asliyatdagi mazmun, mubolag'a san'ati aks etgan. Tarjimada "shafaq" so'zi tushirilib, faqatgina "lalazar", "ot" so'zlari keltiriladi. Bu ikki so'z vositasida tashbeh va jam' san'atlari saqlangan. Lekin, "tushdi o't"ni – "ot tústi", "shafaq"ni – "kún batqan joq qizarıp" deb tarjimalangani sababli ohang, ifoda biroz g'alizlashib qolgan.

O'qlaring ko'nglimga tushgach, kuydi ham ko'z, ham badan,
Kim, kuyar o'lu quruq chun nayistong'a tushti o't

– baytida esa ifodaning emotsionalligini ta'minlash uchun "Qamishzorga o't tushsa ho'l-u quruq baravar yonadi" maqoli keltirib, irsoli masal san'atidan mohirona foydalanilgan. Mazkur bayt tarjimasida quyidagicha:

Nigar janima oq urdi, kuydi bádénim part boldi.
To'gay quwrap, jani putkil ketip turganda ot tusti.

Xulosa. Biz yuqorida Navoiy g'azallarining to'rt nafar tarjimon-shoirlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini asliyat bilan qiyosladi. Tarjimonlar mahoratini ko'zdan kechirdik. Ularning Alisher Navoiydek buyuk mutafakkir ijodi tarjimasiga qo'l urishi, uning asarlari bilan yaqindan tanishib, chuqur o'rganib, izlanib qoraqalpoq tiliga tarjima qilishining o'zi ham tarjimondan katta mahorat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (Э.И.Фозилов таҳрири). 3-том. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 36.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 388.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 100.
4. Salomov G'. Komilov N. Do'stlik ko'priklari (poeziya va tarjima) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – Б. 5.